

**0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
NEVROLOGIYA VA TIBBIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**



**NEVROLOGIYA  
FANINING ISHCHI CPQUV DASTURI  
(5-kurs, 9-10-semestr)**

Ta'lim sohasi: 510000 - Sog'liqni saqlash  
Ta'lim yo'nalishi: 5510100 - Davolash ishi  
5111000 - Kasbta'limi (5510100-Davolash ishi)

Toshkent -2023

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "12.09.2019 yil" dagi 231-sonli buyrug'i bilan (buyruqning 1-ilovasi) tasdiqlangan "Nevrologiya" fan dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy kengashi tomonidan 2023 yil "26."iyundagi № 12-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan

**Tuzuvchilar:**

**G.S. Raximbayeva** – kafedra mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor

**F.X. Muratov** - tibbiyot fanlari doktori, professor

**S.X. Kalandarova** - assistent

**D.Y. Yusupova** - assistent

**Taqrizchilar:**

**Tashqi taqrizchi:**

**Gafurov B.G.** – TXKMRRM nevrologiya kafedrasi mudiri, t.f.d.,  
professor

**Ichki taqrizchi:**

**Nurullayeva N.M.** – TTA 1 son "Ichki kasalliklari" kafedra mudiri, t.f.d.,  
dotsent

Kafedra mudiri

G.S. Raximbayeva

Davolash ishi fakulteti  
dekani

A.A. Imnazarov

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

F.X. Azizova

## **1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Ushbu fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asab tizimining klinik anatomiyasi, zararlanish sindromlari va ularning tekshirish usullari, amaliyotda ko'p uchraydigan asab kasalliklarini etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi va davolash prinsiplari, o'tkir nevrologik xolatlarda birinchi yordam ko'rsatish, xamda o'qish jarayonida nazariy va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish orqali nevrologik sindromlarni va ularning asosida topik va nozologik tashxis qo'yish, nevrologik bemorlarda instrumental tekshiruvlarni o'tkazish haqida talabalarga bilim beriladi va bo'lg'usi umumiy amaliyot vrachlarida klinik fikrlash, kasallik va uning belgilarini asoslash uchun zamin yaratib beradi.

Nevrologiya fanini o'qitish uchun klinikagacha bo'lgan fanlar: anatomiya, gistologiya, normal va patologik fiziologiya, farmakologiya nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Nevrologiya fani klinik fanlar: ichki kasalliklar, xirurgik kasalliklar, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, geriatriya fanlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

## **2. O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarga umumiy va xususiy nevrologiya asoslarini, kasalliklar profilaktikasini, erta diagnostikasi va davolash prinsiplarini urgatishdan iborat.

### **Fanning vazifaci:**

- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni;
- asosiy nevrologik sindromni aniqlash va u asosida topik, nozologik diagnoz qo'yish;
- nevrologik kasalliklari, ularning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari va davolash prinsiplari to'g'risida tushunchalarni shakllantirish;
- bemorlarni professional nevrologik ko'ruv ko'nikmalarini egallash.
- o'tkir nevrologik kasalliklarda shoshilinch yordam berish ko'nikmalarini egallash;
- tekshiruv o'tkazish vrach taktikasi, davolash va profilaktik bilimni shakllantirish;
- nevrolog – magistr'larga bemorlarni yuborish ko'rsatmalarini bilish;

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quydagi talablar qo'yiladi.

### **Talaba:**

- umumiy nevrologiya asoslari,
- topik o'choqni aniqlash;
- bosh miya kranial nervlar zararlanishini;
- sindromal, topik, nozologik va yakuniy tashxis asoslari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

- eng ko‘p tarqalgan nevrologik kasalliklarni etiologiya, diagnostika, profliktika va davolash prinsiplari;
- nevrologik sindromlarni qiyosiy tashxisi;
- asab kasalliklarida qo‘llaniladigan diagnostika usullari to‘g‘risida **bilishi va ulardan foydalana olishi kerak**

### 3. O‘quv fani o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

“Nevrologiya” fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, nevrologik kasalliklarida uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirib borish vazifalarini bajaradi.

#### O‘quv yili uchun taqsimlangan soatlar:

Yo‘nalish (fakultet)	Umumiy yuklama	Auditoriya soati				Mustaqil ta‘lim	Nazorat turi
		ma‘ruza	Amal.mashg‘. (seminar)	Klinik o‘quv amal.	Lab.mashg‘.		
Davolash ishi	187	12	42	54	-	79	ON, YaN (OSKI + TEST)
Kasb ta‘limi	187	12	42	54	-	79	ON, YaN (OSKI + TEST)

#### 4. Ma‘ruza mashg‘ulotlari

№	Ma‘ruza mavzulari	soat hajmi
<b>9-10 semestr</b>		
1	<b>Muqaddima. Asab tizimini klinik anatomiyasi.</b> Nevrologiya faning qisqacha tarixi, hozirgi zamon nevrologiyasining yutuqlari va kelajagi xaqida. Funktsional tashxis uslublari. Asab tizimini gistologiyasi. Neyron. Markaziy va periferik nerv tizimini klinik anatomiyasi. Oliy nerv faoliyati. Yarim sharlar zararlanish sindromi.	2
2	<b>Serebrovaskulyar kasalliklar.</b> Asab tizimi kasalliklarining klassifikatsiyasi. Bosh miyaning qon bilan ta‘minlanishi. serebrovaskulyar kasalliklar klassifikatsiyasi. Ishemik va gemorragik insultlar: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi.	2
3	<b>Asab tizimining yallig‘lanish kasalliklari.</b> Ensefalitlar, meningitlar, meningoensefalitlar, leptomeningitlar, mielitlar, poliomielitlar. Yallig‘lanish kasalliklarini klassifikatsiyasi. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va	2

	profilaktikasi. orqa miya va umurtqaning kasb kasalliklari bilan qiyosiy tashxis o'tkazish.	
4	<b>Degenerativ va demielinizatsiya kasalliklari.</b> Siringomieliya, yon amiotrofik skleroz, tarqoq skleroz, leykoensefalitlar. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi.	2
5	<b>Asab sistemasining nasliy kasalliklari.</b> Klassifikatsiya. Nerv – mushak kasalliklar (miopatiyalar), piramid, ekstrapiramid va miyacha zararlanish bilan kechadigan sistem degeneratsiyalari. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi. Mediko - genetik konsultatsiya.	2
6	<b>Epilepsiya va paroksizmal sindromlari.</b> Tasnifi, epileptik hurujlarni turlari. Epilepsiya diagnostikasi, davolash prinsiplari. Sinkopal holatlar: tasnifi, differensial tashxis, asosiy sabalari va davolash prinsiplari.	2
<b>JAMI:</b>		<b>12</b>

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda akademik guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

#### 4. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	soat hajmi
<b>9-10 semestr</b>		
1	<b>Asab tizimining klinik anatomiyasi.</b> Orqa miya, miya ustuni, bosh miya yarim sharlari, ichki kapsula, bosh miya qorinchalari. Oliy nerv faoliyati va markazlari. Yarimsharlar zararlanish sindromlari. Amaliy qism: Oliy nerv faoliyati tekshirish usullarini bemorlarda o'rganish.	4
2	<b>Xarakat koordinatsiyasi va ekstrapiramidal tizim.</b> Striar va pallidar sistema. Zararlanish sindromlar: giperkinetik-gipokinetik va parkinsonizm. Miyacha. Xarakat koordinatsiya tekshirish usullari. Ataksiya, turlari, differensial diagnostikasi. Amaliy qism: Xarakat koordinatsiyani tekshirish usullarini bemorlarda o'rganish.	4
3	<b>Xarakat faoliyati.</b> Ixtiyoriy xarakat yo'li, kortiko – spinal va kortiko – nuklear yo'llari. Markaziy va periferik neyron, funksiyasi va patologiyasi. Markaziy va periferik falajlar belgisi. Xarakat yo'llarni zararlanishini topik diagnostikasi: periferik, spinal, serebral turlari. Reflektor sfera: fiziologik va patologik reflekslar, reflekslar yoyi, chaqirish usullari. Amaliy qism: Xarakat faoliyati va reflekslarni tekshirish usullarini bemorlarda o'rganish, markaziy va periferik falaj bilan bemorlarni kuratsiyasi.	4

4	<p><b>Sezgi analizatori.</b> Klassifikatsiyasi, yuzaki, chuqur va murakkab sezgi turlari. Yuzaki va chuqur sezgi yo‘llari tuzilishi, sxematik chizmasi. Sezgi faoliyatining tekshirish usullari. Sezgi faoliyati buzilishining topik diagnostikasi. Segmentar va o‘tkazuvchi turdagi sezgi buzilishlari. Tortilish simptomlar.</p> <p>Amaliy qism: Sezgi analizatori tekshirish usullarini bemorlarda o‘rganish, segmentar, o‘tkazuvchi, polinevritik, ildizchali sezgi buzilishi bilan bemorlarni kuratsiyasi.</p>	4
5	<p><b>Bosh miya nervlari.</b> BMN: I – xidlov nervi; II – ko‘ruv nervi; III – ko‘z xarakatlantiruvchi nervi; IV – g‘altak nervi; VI – uzoqlashtiruvchi nervi; funksiya, tekshirish usullari va zararlanish belgilari.</p> <p>Amaliy qism: I, II, III, IV va VI juft bosh miya nervlari tekshirish usullarini o‘rganish va bemorlarni kuratsiya qilish</p>	4
6	<p><b>Bosh miya nervlari, davomi.</b> BMN: V – uch shoxli nervi, VII – yuz nervi va VIII – eshituv nervi: funksiya, tekshirish usullari va zararlanish belgilari.</p> <p>Amaliy qism: V, VII va VIII juft bosh miya tekshirish usullarini o‘rganish va bemorlarni kuratsiya qilish</p>	4
7	<p><b>Bosh miya nervlari, davomi.</b> BMN: IX – tilxalqum nervi, X – sayyor nervi, XI – qo‘shimcha nervi, XII – tilosti nervi: funksiya, tekshirish usullari va zararlanish belgilari. Bulbar va psevdobulbar sindrom.</p> <p>Amaliy qism: IX, X, XI va XII juft bosh miya nervlari tekshirish usullarini o‘rganish va bemorlarni kuratsiya qilish</p>	6
8	<p><b>Asab kasalliklarini instrumental diagnostikasi:</b> EEG, UZDG, ExoEG, EMG, KT, YaMR, kraniogramma, spondilogramma, lyumbal punksiya.</p> <p>Kasallik tarixini taxlili, sindromologik, topik tashxis.</p>	6
9	<p><b>Qon – tomir kasalliklari.</b> Bosh miyaning qon bilan ta‘minlanishi soxalari. sVK tasnifi. Insultgacha bo‘lgan kasalliklar: etiologiya, xavli omillar, patogenez, diagnostikasi, tekshirish usullari, UASh taktikasi.</p> <p>Amaliy qism: XIM, TIA, VSD, DE bemorlarni kuratsiya qilish</p>	6
10	<p><b>Qon – tomir kasalliklari(davomi).</b> Ishemik va gemorragik insultlar, etiologiya, xavli omillar, patogenez, diagnostikasi, tekshirish usullari, UASh taktikasi.</p> <p>Amaliy qism: Insult bilan bemorlarni kuratsiya qilish</p>	6
11	<p><b>Asab tizimini yallig‘lanish kasalliklari.</b> Ensefalitlar, mielit, poliomielit, surunkali serebral leptomeningitlar: etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostika, davolash va profilaktika usullari, UASh taktikasi.</p> <p>Amaliy qism: O‘tkir yoki o‘tkir nevrologik kasalliklarni asorati bilan bemorlarni kuratsiya qilish.</p>	6

12	<b>Periferik nerv tizimi kasalliklari.</b> Mononevrit, pleksit, vertebrogan ogʻriq sindromlar: etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostika, davolash va profilaktika usullari, UASh taktikasi. Amaliy qism: Polinevrit, nevrit, radikulit bilan bemorlarni kuratsiyasi.	6
13	<b>Asab tizimini demielinizatsiyali va degenerativ kasalliklari.</b> Tarqoq skleroz, Siringomieliya, Yon amiotrofik skleroz: etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostika, davolash va profilaktika usullari, UASh taktikasi. Amaliy qism: Asab tizimini degenerativ kasalliklari bilan bemorlarni kuratsiyasi.	6
14	<b>Epilepsiya va paroksizmal xolatlar.</b> Epilepsiya va epileptik xurujlarning tasnifi, klinik koʻrinishi, birinchi yordam, diagnostika, davolash prinsiplari. Sinkopal xolatlar, etiologiya, diagnostika, differensial tashxis, davolash prinsiplari. Amaliy qism: Epilepsiya, sinkopal xolatlar bilan bemorlarni kuratsiyasi.	6
15	<b>Asab tizimining nasliy kasalliklarini.</b> Tasnifi. Avj oluvchi mushak distofiyasi-miopatiyalar. Pastki spastik paraplegiya, Sharko-Mari nevril amiotrofiyasi, nasliy ataksiyalar, gepatotserebral distrofiya, nasliy Gentington kasalligi: etiologiyasi, patogenezi, klinik turlari, koʻrinishlari, davolash va profilaktika usullari. Amaliy qism: Nasliy kasalliklar bilan bemorlarni kuratsiyasi.	6
16	<b>Bosh ogʻriq sindromi.</b> Birlamchi bosh ogʻriqlar: Migren, Zoʻriqish bosh ogʻriqlar, Klaster sefalgiya: etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostika, davolash va profilaktika usullari, UASh taktikasi. Amaliy qism: Bosh ogʻriq sindrom bilan bemorlarni koʻrish	6
17	<b>Bosh aylanish sindromi.</b> Bosh aylanish tasnifi. Markaziy va periferik bosh aylanishlar. Mener sindromi, vestibulyar neyronit, pozitsion bosh aylanish, qon-tomir kasalliklaridagi bosh aylanishlar. Etiologiya, patogenezi, davolash va profilaktika usullari, UASh taktikasi. Amaliy qism: Bosh aylanish sindrom bilan bemorlarni koʻrish	6
18	<b>Xush buzilish sindromi.</b> Xush buzilish tasnifi. Komalar darajasi. Glazgo shkalasi. serebral va metabolik komalar. Differensial tashxisi. Amaliy qism: Xushsiz bemorlarda nevrologik statusni tekshirish xususiyatlari.	6
	<b>JAMI</b>	<b>96</b>

Amaliy mashgʻulotlar auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida oʻtiladi. Mashgʻulotlar faol va interfaol usullar yordamida oʻtiladi, “Keys-stadi” texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni oʻqituvchi tomonidan belgilanadi.

Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Amaliy mashg'ulotning klinik qismi mavzularga xos ravishda TTA ko'p tarmoqli klinikasi nevrologiya, intensiv nevrologiya, somatonevrologiya, serebrovaskulyar patologiya va SKAL bo'limlarida bemorlarni kuratsiya shaklida olib boriladi

### 5. Mustaqil ta'lim

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soat hajmi</b>
<b>9-10 semestr</b>		
1	Asab tizimining ontogenezi	7
2	Vegetativ asab tizimining anatomiyasi va fiziologiyasi	8
3	Orka miyada kon aylanishining buzilishi	7
4	Tos organlarni innervatsiyasi va buzilish sindromlari	7
5	Bosh miya xajmli va parazitar kasalliklari	7
6	Gipotalamik sindrom.	7
7	Dissomniyalar	7
8	Kognitiv buzilishlar. Alsgeymer kasalligi.	7
9	Prozopalgialar	7
10	Ko'rish buzilish sindromi	7
11	Somatonevrologik sindromlar	8
<b>JAMI</b>		<b>79</b>

Mustaqil ta'lim mavzulari talabalar tomonidan auditoriyadan tashqari o'zlashtiriladi va mavzuga oid joriy baholashda inobatga olinadi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan prezentatsiya shaklida tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi. Nevrologik bemor parvarishi moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi

**Mustaqil ta'limni tashkil etish uchun tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy ta'minot:** qo'llanmalar, adabiyot, fotosuratlar, mulyaj, asbob-anjom, jadvallar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, kompyuter dasturlari, bo'limlarda bemorlarni kuratsiya qilish.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida bemorlarda son va sifat jixatdan bajarish;

- nevrologik bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira bilan ishtirok etish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (prezentatsiya) tayyorlash;

- umumiy nevrologiya qismi bo'yicha albom (xarakat va sezgi yo'llari, kranial nervlar va b.) chizish;

- xususiy nevrologiya bo'yicha nevrologik kasallik tarixini yozish va



ximoyalash;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish.

**Fan bo‘yicha kurs ishi.** Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada rejalashtirilmagan.

***Amaliy ko‘nikmalar***

№	Amaliy ko‘nikmalar nomi	Soni	Amaliy ko‘nikmalarni bajarish uchun zarur ta‘minot (jihozlanishi)
<b>9-10 semestr</b>			
1	Xarakat sferasini tekshirish		qo‘llanmalar, adabiyot, fotosuratlar, fantom, mulyaj, simulyatorlar, asbob-anjom, jadvallar, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, kompyuter dasturlari, klinik fanlar uchun kechki navbatchiliklar, volontyorlik, simulyatsion markazlarda ishlash va h.k.
2	Xarakat koordinatsiyasini tekshirish		
3	Sezgi sferasini tekshirish		
4	Reflektor sferasini tekshirish usullari		
5	Ko‘z harakatlantiruvchi nervlarni tekshirish		
6	Yuz nervlarni tekshirish		
7	Bulbar sindromni tekshirish		
8	Meningial simptomlarni tekshirish		
9	Tortilish simptomlarni tekshirish		

***Amaliy ko‘nikmalarni qadamma-qadam bajarilish algoritmi:***

№	Amaliy ko‘nikmalar
<b>Harakat sferasini tekshirish</b>	
1.	Bemorni xolati
2.	Ko‘rik (atrofiya, fibrillyar tortishlarni aniqlash).
3.	Aktiv harakat xajmini tekshirish.
4.	Passiv harakat xajmini tekshirish
5.	Muskul tonusini aniqlash.
6.	Muskul kuchini aniqlash.
<b>Reflekslarni tekshirish</b>	
1.	Bitseps refleksni chaqirish
2.	Tritseps refleksni chaqirish
3.	Periostal refleksni chaqirish
4.	Tizza refleksni chaqirish
5.	Axil refleksni chaqirish
6.	Qorin refleksni chaqirish
7.	Babinskiy refleksni chaqirish
8.	Rossolimo refleksni chaqirish
9.	Oppengeyma refleksni tekshirish
<b>Harakat koordinatsiyasini tekshirish</b>	
1.	Romberg holatida turish
2.	Bemorning yurishi
3.	Barmoq – burun sinamasi
4.	Tovon – tizza sinamasi

5.	Diadoxokinez sinamasi
6.	Dismetriya sinamasi
7.	Styuart – Xolms sinamasi
<b>Sezgi sferasini tekshirish</b>	
1.	Og‘riq sezgisini tekshirish.
2.	Harorat sezgisini tekshirish.
3.	Taktil sezgisini tekshirish.
4.	Passiv harakat sezgisini tekshirish.
5.	Tana qismlarni fazodagi xolatini aniqlash sezgisi.
6.	Vibratsiya sezgisini tekshirish.
7.	Teriga chizilgan shakllarni aniqlash sezgisi.
8.	Stereognoz
<b>Ko‘z harakatlantiruvchi nervlarni</b>	
1.	Bemorni shikoyatlari
2.	Ptoz, g‘ilaylik, ekzoftalm borligini aniqlash.
3.	Ko‘zni harakatini tekshirish
4.	Qorachiq shakli va kataligini tekshirish
5.	Qorachiqni to‘g‘ri va xamqor reaksiyalarini tekshirish
6.	Qorachiqni akkomodatsiya va konvergensiya reaksiyalarini tekshirish
<b>Uch shoxli nervini tekshirish</b>	
1.	Bemorni shikoyatlari
2.	Valle nuqtalari palpatsiyasi
3.	Yuzda ildizcha va segmentar sezgini tekshirish
4.	Tilning oldingi uchdan birida ta‘m bilishni tekshirish
5.	Pastki jag‘ harakatini tekshirish
6.	Trizm aniqlash
<b>Yuz nervini funksiyasini tekshirish</b>	
1.	Bemorni shikoyatlari
2.	Yuzda ajinlarni, burmalarni, ko‘z yorig‘ini simmetrikligini aniqlash.
3.	Mimik sinovlarni tekshirish
4.	Qosh usti refleksini tekshirish
<b>Til-halqum va sayyor nervlarni tekshirish usullari</b>	
1.	Bemor shikoyatlari
2.	Ovozni jarangdorligini aniqlash
3.	Yutishni buzilishni aniqlash
4.	Yumshoq tanglayni tinchlik va fonatsiya vaqtidagi xolatini tekshirish
5.	Yutqun refleksini tekshirish
6.	Tilni orqa uchdan biri qismida ta‘m bilishni tekshirish
<b>Meningial simptomlarni tekshirish</b>	
1.	Ensa mushaklar rigidligini aniqlash
2.	Kernig simptomini tekshirish
3.	Yuqori Brudzinskiy simptomini tekshirish
4.	O‘rta Brudzinskiy simptomini tekshirish
5.	Pastki Brudzinskiy simptomini tekshirish
<b>Tortilish simptomlarni tekshirish</b>	
1.	Neri simptomini aniqlash
2.	Lasega simptomini tekshirish
3.	Vasserman simptomini tekshirish
4.	Maskevich simptomini tekshirish

**Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholash va**

**nazorat qilish mezonlari**  
**Nevrologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarini joriy baholash (JB) shakllari**  
 Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

**Talabalar bilimini joriy baholash mezonlari**

Baho	O‘zlashtirish (%) va ballarda	Talabaning bilim darajasi
A’lo «5»	90 — 100	- talaba mustaqil hulosaga va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fan bo‘yicha mavzuning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fanning mavzusi bo‘yicha tasavvurga ega.
Yaxshi «4»	70 — 89,9	- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fan bo‘yicha mavzuning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fanning mavzusi bo‘yicha tasavvurga ega.
Qoniqarli «3»	60 — 69,9	- talaba olgan bilimni amalda qo‘llay oladi fan bo‘yicha mavzuning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fanning mavzusi bo‘yicha tasavvurga ega
Qoniqarsiz «2»	0 — 59,9	- talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fan bo‘yicha mavzuning mohiyatini tushunmaydi hamda fanning mavzusi bo‘yicha tasavvurga ega emas.

**Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o‘tkazish**

**JADVALI**

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	<b>3,0 dan kam</b>	<b>60 dan kam</b>

**Nazorat turi va baholash mezonlari**

1. Talabalar bilimini nazorat qilish joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. 5-kurs davolash va tibbiy pedagogika fakulteti talabalari “Nevrologiya” fanidan semestr o‘rtasida ON hamda semestr yakunida yakuniy nazoratni OSKE+Test shakllarida

topshiradi.

2. Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabanning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

3. Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

4. Oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

5. Semestr davomida haftasiga 4 akademik soat (72 soat)dan kam bo'lgan fanlar bo'yicha Oraliq nazorat turi o'tkazilmaydi.

6. Talabanning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi.

7. Yakuniy nazorat fan yakunida tegishli fan bo'yicha talabanning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

8. Yakuniy nazorat turi o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tasdiqlaydigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

9. Oraliq va yakuniy nazorat turlari ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki ob'ektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o'tkazilishi mumkin.

## **7. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari ro'yhati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ibodullaev Z.R. Asab kasalliklari. Darslik. - Toshkent. "Fan va texnologiya". 2013 y.

2. Asadullaev M.M. Asab kasalliklari propedevtikasi. Darslik. - Tashkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Gafurov B.G. Klinicheskie leksii po nevrologii. Monografiya. -Tashkent. "Ibn Sino". 2016 g.

2. Madjidov N.M., Gafurov B.G., Madjidova Yo.N. Xususiy nevrologiya. Darslik. -Toshkent. "Sharq". 2012 g.

3. Xodos X.-B.G. Nervnye bolezni. Uchebnik. -Moskva."Meditsinskoe informatsionnoe agentstvo" 2002..

4. Yaxno N.N. Golovnaya bol. Rukovodstvo dlya vrachey. -Moskva. "Remedium". 2000 g.

### **Internet saytlar:**

1. <https://ssv.uz/ru/documentation/category/nevrologija>

2. <http://medprom.ru>,